

Tarbiyachi - pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyalari

N.Q.Matchanova UrDPI Pedagogika fakulteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedra o‘qituvchisi

S.S.Ro‘zimboyeva UrDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyachi pedagoglarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish, ularda yangicha fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik qobiliyat, ijodkorlik, bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiya, ijodiy yondashuv, kreativ salohiyat, innovatsion kasbiy faoliyat.

Abstract. This article describes the theoretical foundations of the formation of creative abilities of educators, development of new thinking and creative skills in them.

Key words: creativity, professional competence, pedagogical ability, creativity, knowledge, competence, skill, competence, creative approach, creative potential, innovative professional activity.

Kirish. Hozirgi kunda jahoning ilg‘or mamlakatlari qatorida respublikamizda ham maktabgacha ta’lim tizmini isloh qilishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2019 - yil 19 - oktyabrdagi maktabgacha ta’lim tizmini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida ta’kidlaganlaridek: “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga mos yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi va bunda pedagoglarning faolligi, ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Hozirgi kunda innovatsion rivojlanishning muhim vazifalaridan biri bu insonlarning kreativ fikrlay olish qobiliyatini shakllantirishdir. Kreativlik deganda insonning yangidan yangi ijodiy fikrlarni ishlab chiqarishi, yaratuvchanligi, ijodkorlik qobiyati, tafakkurining kengligi, intiluvchanligi, tashabbuskorligi, o‘z kasbini sevishi, o‘z qobiliyatlarini namoyon qila olishi, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashishi va kasbiy yetukligini tushunishimiz mumkin. Xususan, oliy ta’lim muassasasi pedagoglarini hamda bo‘lajak mutaxassislarining kreativligini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, doimiy ravishda yangilanib turuvchi jamiyatimiz hayotiga ijodiy fikr va yangicha qarashlar bilan yondashuvchi yosh avlodni zamon talablariga mos tarzda tarbiyalash oliy ta’lim muassasasi pedagoglarining muhim kasbiy vazifasi sanalanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ham o‘rni bag‘oyatda kattadir. Tarbiyachi pedagog shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri bu uning o‘z ustida tinmay izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, biz maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyanuvchilarini tarbiyalashda o‘z ustimizda tinmay izlanishlar olib borishimiz, har bir bola bilan individual, yakka tarzda shug‘ullana bilishimiz, kasbiy yetuk hamda kreativ kompetetli bo‘lishimiz zarur. Bu esa o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ta’lim-tarbiyaviy faoliyat jarayoniga mazmunan va shaklan ijodiy yondasha bilishni, ta’lim-tarbiya jarayoniga kreativlikni olib kirish ya’ni bolalar uchun inklyuziv muhitni yarata bilishni taqazo etadi. Shaxsnинг kreativligi uning tafakkurida, dunyoqarashida, muloqotida, nutq madaniyatida, fikrlashida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda kreativ fikrlashini, faoliyat jarayonlariga ijodiy yondashuvini yoki uning muayyan xususiyatlarini va zehni o‘tkirliligini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida o‘z aksini topgan hisoblanadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik ma’lum bir muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazlarni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligidagi nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat,

1 “Tarbiyachining pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvi” maqola Xudoyberdiyeva Feruza 2-bet

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

fazilat, xarakter-xususiyat kabi kreativlik ham birdaniga shakllanib qolmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil tarzda shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning kasbiy faoliyat jarayonini sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi ularda ta’lim va tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga an’anaviy yondashishdan farqli yangi ijodiy g‘oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o‘ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslik kabi bir qancha xususiyatlarni to‘laqonli ochishga yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega bo‘lgan tarbiyachi pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashishga, pedagogik muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga, bolalarining o‘quv va ta’lim-tarbiyaviy faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishga, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganishga, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi. Har qanday pedagogda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillaridanoq poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muntazam ravishda rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi pedagog ijodiy faoliyatini tashkil etishda pedagogik muammolarni aniqlab borishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va muammoli masalalarni yechishi, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishda ijodiy fikrlagan holda yondashishi undagi hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yishi va uni hal qilishga intilishi orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan o‘zida ehtiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyatni ma’lum vaqt ichida izchil tarzda o‘qib-o‘rganishi, o‘z ustida tinmasdan ishlashi orqali shakllanib boradi. Ko‘pgina tarbiyachi pedagoglar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Bu fikrni ikki xil sabab bilan asoslab berish mumkin: birinchidan, aksariyat pedagoglar aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma’noni anglatishini o‘zida yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan esa

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

kreativlik tushunchasi negizida bevosita qanday sifatlarni aks etishidan bexabardirlar. Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega hisoblanadi. Xo‘sh, ular o‘zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon qilishi mumkin. Bu o‘rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: Agarda o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinab ko‘rishga intilishingizdadir. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlab, masalani tahlil qilib ko‘rishingiz hisobladi. Yuqorida bildirilgan fikrlarga asosgan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhshimiz mumkin: Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, nutq madaniyatida, fikrlashida, dunyoqarashida, muloqotida, tuyg‘ularida, hissiyotlarida, ma’lum bir faoliyat turlarida o‘z aksini topgan bo‘ladi. Kreativlik iqtidorlilikning muhim omili sifatida o‘z aksini topgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagog o‘z-o‘zidan kreativ qobiliyatli bo‘lib qolmaydi. Uning kreativlik tushunchasini o‘zida shakllantirib olishida uning ma’lum vaqt ichida izchil tarzda o‘qib-o‘rganishi, o‘z ustida doimiy ravishda ishlab borishi, shuningdek oliv ta’lim muassasasi pedagoglarining o‘rni ham nihoyatda kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.“Tarbiyachining pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvi” maqola Xudoyerdiyeva Feruza
- 2.<https://fayllar.org/1-pedagog-tarbiyachi-faoliyatiga-kreativ-yondashuv-tarbiyachin.html>.
- 3.<https://ziyonet.uz>